

**JAHON XO'JALIKLARI RIVOJI VA TRANSPORT ALOQALARI**

Farg'ona viloyati Uchko'prik tumani 1-politexnikumi

Geografiya fani o'qituvchisi

Xodjamova Feruzaxon Shavkatjon qizi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jahon xo'jaliklari va uning shakllanish tendensiyalari, ishlab chiqarishning takomillashuvida iqtisodiy aloqalar va boshqa sohalarning ahamiyati haqida so'z boradi. Jahon xo'jaliklari iqtisodiyotida transport sohasining aralashuvi iqtisodiyotning rivojlanishiga turtki bo'ladi. Bu borada esa jahon xo'jaliklarining geografik joylashuvi muhim rol o'ynaydi. Jahon xo'jaliklarining rivojlanishida transport ham muhim rol o'ynaydi. Shu jihatdan maqolada jahon xo'jaliklari iqtisodiyotida transportning o'rni haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *ishlab chiqarish, transport, iqtisodiy aloqa, jahon xo'jaligi, geografik joylashuv, urbanizatsiya, resurslar*

KIRISH.

Jahon xo'jaligi tarmog'i insoniyatning butun rivojlanish davrida shakllanib takomillashgan. U ibtidoiy jamoa tuzumida foydalanilgan tosh qurollari va hozirgi kunda ishlab chiqarishda, kunlik hayotimizda keng qo'llanilayotgan elektro-hisoblash mashinalarigacha bo'lgan murakkab taraqqiyot bosqichlaridan o'tgan. Jahon xo'jaligi – turli mamlakatlar milliy iqtisodiyotining bozor munosabatlari zahirida bir-birini taqozo etgani holda umumjahon birligini tashkil qilishi; jahondagi o'zaro bir-biri bilan bog'liq milliy xo'jaliklar va xalqaro iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi. Jahon xo'jaligi bozor iqtisodiyoti rivojining mahsuli sifatida XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida yuzaga kelgan. Ixtisoslashuv mamlakatda qanday tabiiy resurslarning borligiga va shu yerdagi ishlab chiqarish tajribasi bilan bog'liq. Jahon davlatlarining taraqqiy etishida geografik joylashuv, aholi soni va ishlab chiqarishning takomillashuvi, transport kabilar muhim rol o'ynab kelmoqda. Jahon xo'jaligidagi iqtisodiy aloqalar har bir mamlakat milliy iqtisodiyotining mustaqilligi; mamlakatlar iqtisodiy munosabatlarining bozor qoidalari asosida olib borilishi; iqtisodiy aloqalar



uning ishtirokchilar uchun zaruriy manfaatli bo'lishi; milliy xo'jaliklar manfaatlarining uyg'unligiga tayanib, ixtiyoriy ravishda va sharoit yetilganda o'zaro integratsiyalashuvi tamoyillari asosiga qurilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jahon xo'jaligi iqtisodiy kategoriyadir, chunki uning to'g'risidagi tushuncha ijtimoiy mehnat taqsimoti tushunchasi, xo'jalik aloqalarining baynalmilallashishi hamda xalqaro iqtisodiy integratsiyalanishi bilan aloqadordir. Jahon xo'jaligi geografik kategoriyadir, chunki uni geografik nuqtai nazardan kam deganda uch daraja miqyosida tadqiq etishni nazarda tutiladi:

- 1) jahon xo'jaligining umumiy geografiyasi;
- 2) uning tarmoqlari geografiyasi;
- 3) yirik regionlar va subregionlar geografiyasi.

Ayni shu jihatdan maqolada asosan, chet tilidagi adabiyotlar hamda manbalar, jahon xo'jaliklarining takomilini tashkil etuvchi geografik joylashuvlarga asoslangan ma'ruzalar manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida eksperiment, xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo'llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Jahon xo'jaliklari tarixiy kategoriya hisoblanib, uni shakllanish va rivojlanish jarayonlarini o'ziga xos xususiyatlar bilan ifodalanuvchi ayrim bosqichlarga ajratiladi. Birinchi va eng uzoq davrni o'z ichiga olgan jahon xo'jaligi belgilari, xususiyatlari shakllana boshlagan bosqich buyuk geografik kashfiyotlar davrigacha bog'liq Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida xalqaro savdo Yevropa va Osiyodan keyin Yer sharining boshqa regionlari va qit'alarini ham qamrab olgan. Jahon bozori transport, ayniqsa, dengiz transporti rivojlanishi munosabati bilan yana ham kengaydi, chunki dengiz transporti barcha materiklarni birlashtirishga imkon yaratdi. Jahon xo'jaligi XX asr arafasida to'la-to'kis shakllanib bo'ldi, hamda ushbu asrning birinchi yarmida uning rivojlanishi ayrim hududlarni qamrab olish hisobiga rivojlandi. XX asrning ikkinchi yarmida esa jahon xo'jaligining rivojlanishi asosan tarkibining takomillashtirilishini ta'minladi. Jahon xo'jaliklari aloqalari ko'p qirrali bo'lib, savdo-sotiq, xalqaro valyuta-kredit munosabatlari, kapital chiqarish va uni



kiritish, ochiq iqtisodiy zonalar tashkil etish, ish kuchi migratsiyasini uyushtirish, birgalikda ilmiy-texnikaviy loyihalarni moliyalashtirish, axborot almashish, sayyohlik sohasida hamkorlik qilish kabi shakllarga ega.

MDH mamlakatlari orasida Rossiya, Ukraina, Belarus, Qozog‘iston, O‘zbekiston daromadi o‘rtachadan pastroq bo‘lgan mamlakatlar guruhini tashkil etadi. MDHning boshqa mamlakatlari daromadi past (eng kam taraqqiy etgan) mamlakatlar hisoblanadi. Transport jahon xo‘jaligining eng yangi siljishlari va tendensiyalarigamijozlaming yangi talablariga moslashadi, bu hol xususan, sanoat mahsulotlariga ishlov berish darajasining keskin o‘sishi, xalqaro aloqalar va tarmoq tarkibining o‘zgarishi bilan izohlanadi. Transport mintaqaviy siyosat quroli sifatida qo‘llanilmoqda. Transport ortiqchaligi kuchayishi va rivojlanishining ziddiyatligi sharoitida davlatning raqobatni kamaytirishga va milliy transport kompaniyalarini himoyalashga y□naltirilgan proteksionistik va kamsituvchi iqtisodiy, fiskal va huquqiy ta’sir choralari kengayib boradi. «Ko‘rinmas» eksportni kengaytirish uchun «o‘z» transport vositalaridan foydalanish kuchayadi (xorijlik kemani kiraga oluvchi va h.k. yukini tashish).

XULOSA

Aytish joizki, jahon xo‘jaliklaridagi yangi talablar transport-kommunikatsiya kanallari amal qilishining ishonchliligining kuchayishga moyilligini keltirib chiqaradi. Asosiy ommaviy yuklar manbalarining geografiyasi o‘zgarishga uchraydi: bir tomondan, nisbatan yaqin va siyosiy jihatdan barqaror manbalarga o‘tish kuzatiladi, bu esa yuk tashishlarning o‘rtacha davomiyligi qisqarishiga olib keladi. Ikkinchi tomondan - shu sababga ko‘ra uzoq bo‘lsa-da, muqobil manbalarni izlash hisobidan yagona noyob manbaga qaramlikni susaytirishga intilish namoyon bo‘ladi, bu esa uzoqlikning kuchayishiga olib keladi. Ayni paytda urbanizatsiyaning yangi shakllari - suburbanizatsiya, aglomeratsiya va konurbatsiyalarning shakllanishini aholining ommaviy avtomobillashtirishsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Transport va ekspeditsiyaviy-taqsimlash xo‘jalik korxonalarining birlashuvi muhim istiqbolli tendensiyadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:



1. Q.Abirqulov. Iqtisodiy geografiya (darslik). Toshkent. TDIU, 2004y.
2. Yu.N.Gladkiy, S.B.Lavrov. Globalnaya geografiya uchebnik. Moskva, 2001g.
3. Goudie A. Physische Geographie. Germany. 2002.
4. Kulke E. Wirtschafts - geographie. -Munxen – Zurich: «Ferdinand Schoningh», 2004
5. G.Lipets, V.A.Pulyarnkin, S.B.Shlixter. Geografiya mirovogo xozyaystva. M. 1999g.
6. N.S.Mironyanko. Vvedenie v geografiyu mirovogo xozyaystva. M, 1995g.
7. Sotsialno – ekonomicheskaya geografiya zarubejnogo mira. (Pod red V.V.Volskogo). M. Kron – Press, 1998g.
- 8.M.J.Maxmudova Jahon geografiya // Oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik – Namangan, 2021-358b.
- 9.Boltaev M.J.Chet mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi .Ma`ruza matni.2000 yil.
- 10.Goudie A. Physische Geographie. –Munxen: «Westerman», 1997
- 11.Gograpfieg’ Physische Geographie’. –Bonn: «Cornelsen», 1989.
- 12.Hagget P. Geographie. –Bonn: «Cornelsen», 2001.
- 13.N.Q.Komilova, M.J.Maxmudova, M.N.Qo‘ldasheva. Jahon xo‘jaligi geografiyasi. Darslik.-N.: “ O‘z MU ”, 2022.